

“LAZGI”- MILLIY G‘URURIMIZ**Pirmagambetova Mariya Turganbayevna***O‘zbekiston Davlat Xoreografiya akademiyasi Urganch filiali**“O‘zbek raqsini o‘rganish uslubiyati” fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, nomoddiy madaniy merosimiz durdonasi hisoblangan “Lazgi” raqsining tarixi, rivojlanishi, turlari va 2019-yil 12-dekabrda Xalqaro davlatlar tashlikoti YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga kiritilganligi to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: lazgi, raqs san’ati, ta’lim, tarbiya, YUNESKO

Аннотация: В данной статье рассказывается история, развитие, виды и 2019 год танца «Лазги», который считается шедевром нашего нематериального культурного наследия 12 декабря Международная организация наций объявила о включении его в репрезентативный список нематериального культурного наследия человечества ЮНЕСКО.

Ключевые слова: лазги, танцевальное искусство, образование, воспитание, ЮНЕСКО

Abstract: In this article, the history, development, types and 2019 of the "Lazgi" dance, which is considered a masterpiece of our intangible cultural heritage On December 12, the International Organization of Nations announced that it was included in the representative list of intangible cultural heritage of humanity by UNESCO.

Key words: Lazgi, dance art, education, training, UNESCO

Raqs san’ati insonning mehnat jarayoni va borliqdan olgan hissiy taassurotlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Bu san’at dastlab qo‘sishq va so‘z bilan bog‘liq bo‘lib, keyinchalik mustaqil san’at turiga aylangan. Raqs asrlar davomida takomillashib, barqaror shakllarga ega bo‘lgan. Har bir xalqning raqs an’analari, ijro uslubi, plastik tasviriy vositalari bo‘lib, ular tarixiy, ijtimoiy va geografik sharoitlar ta’sirida tarkib topib rivojlangan. Ijrochining libosi raqs obrazlariga aniqlik bergen. Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston hududida topilgan qoya tosh tasvirlari arxeologik topilmalar bu yerda raqs juda qadimiyligidan guvohlik beradi. Zardushtiyarning muqaddas kitobi “Avesto” davridayoq raqs san’ati shakllanib, xalq va professional raqs – ikki yo‘nalishda rivojlanishga kirishgani haqida tarixiy ma’lumotlar bor. Raqsning barcha turlari kabi “lazgi”ning ham o‘ziga xos tarixi bor.

Bu tarix mana shu mo‘tabar zaminimizda asrlar bo‘yi yashagan ona xalqimiz taqdiri bilan uyqash va hamohang kechgan. Mutaxassislar lazgi tarixining ayrim harakatlarini inson yaralishi bilan bog‘laydi. Xalqimiz dahosining durdonalaridan

bo‘lgan qadim “Avesto” ham ushbu raqs shakllanishida muhim o‘rin tutgan. Jahon tarix fanining asoschilaridan biri bo‘lgan Gerodot o‘z asarida bundan 2500 yildan avval qadim xorazmiylarning Oks (Amudaryo) daryosi bo‘yida olov yoqib, alanga ustiga xushbo‘y giyohlar sepib, o‘yin-kulgi qilib, gulxan atrofida tuni bilan holdan toyguncha ajib raqs tushib, tongni qarshilashi haqida ma’lumot beradi.

Qadimiy Xorazm tilida “Lazgi”-sovqotmoq, qaltilromoq ma’nosoni bildiradi. Lazgi raqsining go‘zalligini belgilovchi “titratma”, ”qars” harakatlari faqat Xorazmga xos bo‘lib boshqa yurtda yo‘q. Har narsa bo‘lganda ham lazgi raqsi bugungi kunlargaCHA yetib keldi. O‘zbekiston xalq artisti, lazgi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar qilgan va amaliyotchi murabbiy, ko‘plab orden va medallar sohibasi professor Gavharxon Matyoqubova “Lazgi tarixi” asarida ushbu raqsning 9 turini farqlab ko‘rsatadi. “Bugungi kunda Xorazmda lazgi raqsining 9 turi mavjud, — deydi tadqiqotchi. Mana shu lazgilar har xil sharoitda paydo bo‘lib, asrlar osha davrimizgacha yetib kelgan.

Raqs sekin va oddiy harakatlar bilan boshlanadi — oldin barmoqlar, bilaklar, yelka va keyin butun tana jonlana boshlaydi. So‘ngra birdaniga qo‘l, oyoq, tana ishtirok etadigan murakkab harakatlarga ulanib ketadi. Kuyning bir qismi takrorlangan holda raqs harakatlari almashib boradi. Kuy harakteri o‘zgarishi va sur’at tezlashishi bilan raqs tobora qizg‘inlasha borib, keskin holda tamom bo‘ladi. Lazgining qadim tarixi olovning kashf qilinishi bilan bog‘liq bo‘lib, zardushtiylik diniga borib taqaladi. Zardushtiylikning muqaddas kitobi bo‘lmish “Avesto”da bu haqida yagona ma’lumotlarning borligi olimlar tomonidan ta’kidlangan. Xorazm xalq og‘zaki ijodida lazgining yaratilishi haqida turli xil afsona va rivoyatlar bor. Masalan, jonning tanaga kirish jarayonining ifodalaniishi haqida, iqlimning sovuq bo‘lganligi va olov yoqib isinish uchun turli harakatlar orqali raqsning paydo bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlarni lazgining yaratilishiga bog‘lashadi. Qadimgi lazgi to‘g‘risida shunday afsona bor. Inson tanasi dastlab loydan yasalib, alohida-alohida bo‘lgan ekan. Jonga „tanaga kir“ deb buyuribdilar jon tanaga kirib birdan qo‘rqib qaytib chiqadi. „Kir tanaga“ deb qayta buyuradilar. U „qo‘rqaman“ debdi. Shunda ilohiydan bir kuy taralibdi. Bu kuyga maftun bo‘lgan jon tanaga qanday kirganini o‘zi bilmay qolibdi. Oldin barmoqlariga, panjalariga, bilaklariga, yelkalariga jon kirib, inson tirilibdi. Bu ilohiydan kelgan “Lazgi” kuyi ekan. Totemizm — “Masxaraboz lazgisi”, animizm — “Qayroq lazgisi”, zardushtiylik — “Olov lazgisi”, afsonalardan kelib chiqqan “Dutor” va “Surnay” lazgilari, fantaziya mahsuli bo‘lgan “Xiva lazgisi”, shart-sharoit taqozosiga ko‘ra paydo bo‘lgan. “O‘g‘lon bola” lazgisi, “Garmon lazgisi”, elatlarining aralashuvidan kelib chiqqan Xorazmda eroniylari lazgisi farqlanadi. Ularning ijro uslubi har xil. “Masxaraboz lazgisi”ni o‘ynaydigan ijrochi “Xiva lazgisi”ni yoki “Dutor lazgisi”ni o‘ynovchi “Garmon lazgisi”ni o‘ynay olmasligi mumkin. Shuning uchun lazgi ijrochilarining uslubi turlicha, biri ikkinchisiga o‘xshamaydi. Bu uslublarni o‘rganish

juda qiyin. Lazgining o‘z ijrochisi bor. Lazgini istalgan raqqosa, san’atkor o‘ynay oladi, deb o‘ylashadi. Bu noto‘g‘ri. Lazgini yuksak darajada o‘ynash uchun ilohdan berilgan qobiliyat bo‘lishi kerak.

Bu sehrli va jozibador raqsining YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida reprezentativ ro‘yxatiga kiritilishi xalqimizni ruhlantirdi. Nomoddiy merosimizning xalqaro e’tirofi g‘ururimizni yuksaltirdi, albatta. “Lazgi” xalqaro raqs festivali Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 28-sentabrda imzolangan qarorga ko‘ra Xivada har ikki yilda bir marta o‘tkaziladi. Prezidentimizning Lazgi akademiyasini tashkil yetishga oid tashabbusi, 2022-yildan boshlab Lazgi xalqaro raqs festivalini o‘tkazish haqidagi qarori kishini yanada quvontiradi. Bu chora-tadbirlar jahon ahliga boy milliy qadriyatlarimizni namoyon yetish bilan bir qatorda, mamlakatimizning sayyohlik jozibadorligini oshirishga ham xizmat qiladi. 2022-yil 25-30-aprel kunlari Xivada ilk bor “Lazgi” xalqaro raqs festivali bo‘lib o‘tdi. “Xorazm raqsi – lazgi” san’atining azaliy an’analarini asrabavaylash va rivojlantirish, raqs san’ati orqali xalqlar o‘rtasidagi do’stlik va qardoshlik rishtalarini mustahkamlash, xalqaro miqyosdagi ijodiy hamkorlik va madaniy aloqalar ko‘lamini yanada kengaytirish maqsadida – ushbu rang-barang tadbir “YUNESKO”ning O‘zbekistonidagi vakolatxonasi, Turizm va madaniy meros vazirligi, Madaniyat vazirligi hamda Xorazm viloyati hokimligi hamkorligida tashkil etildi. Tadbir doirasida raqs san’atiga bag‘ishlangan pavilyonlar tashkil etilib, cholg‘u asboblari, liboslar namoyishi bo‘lib o‘tdi. Festivalda 30 davlatdan 190 dan ortiq raqs san’ati ustalari va ixlosmandlari, professional raqs jamoalari, san’atshunos olimlar, taniqli madaniyat arboblari ishtirok yetdi. Festival doirasida o‘tkazilgan raqs tanlovida 18 davlatdan 169 nafar ishtirokchi qatnashdi. Tanlov ishtirokchilari olti nafar professional ekspertdan iborat xalqaro hakamlar hay’ati tomonidan baholandi. Musobaqaning Gran-prisi – o‘zbekistonlik, xorazm faxri Dilnoza Ortikovaga nasib etdi. Festivalning ochilish va yopilish marosimida O‘zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiyali o‘qituvchi va talabalari bu festivalda faol ishtirok etib o‘zlarining chiroyli raqslari bilan tamoshabinlarni maftun qildi. Bunday katta xalqaro festivallar, davlat tadbirlari talabalar uchun katta tajriba maktabidir.

Akademianing bu yilgi oldiga qo‘ygan vazifalari 2023-2024 o‘quv yilida 172 talaba qabul qilinib, undan 60 talaba kunduzgi bo‘limga qabul qilindi Akademiya dars mashg‘ulatlari talabalarga tajribali professor-o‘qituvchilar raqs sa’nating turli yonalishlarida dars beradi. Akademiyamizda “Lazgi” ijrochiligini yanada rivojlantirish bo‘limida yosh malakali mutaxassislar “Lazgi” tarixini o‘rganib foto lavhalar tarixiy hujjatlar yig‘ib muzey tashkil qilindi. Shu bilan bir qatorda RoViya Atadjanova nomidagi “Lazgi” raqs ansamblisi ish faoliyotini yuritmoqda.

2024-yil 5-mart kuni akademiyamizda “Lazgi” raqsining shakllanish tarixi va tendensiyasi” mavzusidagi respublika ilmiy amaliy anjumani bo‘lib o‘tdi. Ilmiy amaliy

anjumanda akademiya professor-o‘qituvchilari o‘zlarining qiziqorli maqolalari bilan qatnashdi.

Konfirensiya ishtirokchilar Lazgi raqsi tarixi, turlari, rivojlanish jarayoni, liboslari haqida fikr-milohazalar bildirdi. Milliy raqs san’ati sohasini rivojlantirishda malakali kadrlar taylorlash, Xorazmning qadimiy raqsi “Lazgi”ni asrab avaylash, uni ilmiy o‘rganish va jahonga targ‘ib qilishda akademika zimmasiga katta mas’uliyat yuklangan. Biz buni o‘zimiz sidqidildan his qilib, o‘zimizning bilim va tajribamizni qo‘llab, go‘zal raqs san’atining rivojlanishiga o‘z hissamizni qo‘shamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Lazgi” xalqaro festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qarori, O‘ZA, 2020 yil 28 sentabr.
2. L.Avdeyeva. “O‘zbek milliy raqsi tarixidan” (Qadim zamonalardan 2000-yilga qadar o‘zbek an’anaviy raqs san’ati) T – 2001.)
3. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasি. Toshkent.: 1994.
4. Matyoqubova G. Toxtasimov Sh. Hamroyeva H. “Xorazm Lazgi raqsi”: tarixi va tavsifi. Toshkent.: 2022.
5. Matyoqubova G. “Lazgi” raqsi: tarixi va tadqiqi. Monografiya. T.: 2023.
6. Internet sahifalaridan. Kutubxona.uz